Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 3-noyabr, № 230 (9401) Seşanba

Saytimizga ötiş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

MEHNAT MIGRATSIYASI: MUNOSIB IŞ, KAFOLATLI DAROMAD VA IŞONÇLI HIMOYA

Prezident Şavkat Mirziyoyev 2-noyabr kuni Toşkent şahrining Uçtepa tumanidagi «Intil» xalqaro til va kasbga öqitiş markazi faoliyati bilan tanişdi.





Mamlakatimizda xorijda işlaş istagidagi fuqarolarni aniq iş örinlariga maqsadli tayyorlaşga e'tibor qaratilmoqda. Bunda til örgatiş, kasbiy könikma beriş, malakani tasdiqlaş va işga joylaşişga kömaklaşiş jarayonlarini özaro boğlaş muhim ahamiyatga ega. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan taşkil etilgan markaz ana şu vazifalarga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbariga markazning imkoniyatlari, ta'lim dasturlari va xorijlik hamkorlar bilan yölga qöyilgan loyihalar haqida ma'lumot berildi.

– Ön yil oldin qonuniy migratsiya böyiça sanoqli davlatlar bilan kelişuvimiz bor edi. Bugun oçiqlik siyosatimiz tufayli yoşlarimiz uçun köplab davlatlarda munosib iş imkoniyatlari oçilmoqda, – dedi Prezidentimiz. – Men yoşlarimizni çet elga oddiy işçi emas, malakali mutaxassis sifatida yubormoqçiman. Maqsadimiz – ularga kasb örgatiş, yangi muhit va madaniyatga moslaşişiga kömaklaşiş.

Qariyb 3,5 gektar maydonda joylaşgan markazda fuqaroning dastlabki murojaatidan tortib, hujjatlarini rasmiylaştiriş, til va kasb örganiş, imtihon topşiriş hamda xorijga işga jönab ketişigaça bölgan jarayonlar bir joyda taşkil etilgan. Front-ofisda maslahat va viza masalalari böyiça kömak körsatiladi. Bu yerda bank xizmatlari, aviaçipta kassalari va Call-markaz ham faoliyat yuritadi.

Majmuada 600 örinli öquv, 180 örinli amaliy maşğulot xonalari, 120 örinli imtihon markazi va 400 örinli yotoqxona mavjud. Hozirda 6 ta xalqaro loyiha doirasida 240 nafar tinglovçi tahsil olmoqda. Ular uçun öqiş va yotoqxona bepul.

Prezidentimiz til va kasbga öqitiş xonalaridagi maşğulotlar bilan tanişdi. Markazda nemis, ingliz, yapon, koreys, çex, polyak, italyan va slovak tillari örgatiladi. Til tayyorgarligi dasturlari 6 oydan 10 oygaça davom etadi. Ularning mazmuni xorijlik iş beruvçilarning ehtiyojlariga qarab yangilab boriladi.

Kasbiy ta'lim 12 ta dasturni qamrab olgan. Tinglovçilar tibbiyot, payvandçilik, elektr va santexnika işlari, ombor logistikasi, quriliş, mehmonxona va restoran xizmati, oşpazlik kabi yönalişlar böyiça tayyorlanmoqda.

– Qayerga bormanglar, öşa davlatda madaniyatimiz, urf-odatlarimiz va tariximizni taniştiringlar. Yaqinda Yaponiyaning Nagoya şahri meri yoşlarimizning madaniyati va odobiga qoyil qolib, menga maktub yölladi. Sizlar haqingizda ham "buyuk tarixga ega buyuk mamlakat farzandlari ekan" degan gaplar aytilişini istayman, – dedi Prezidentimiz tinglovçilar bilan suhbatda.

(Davomi 2-betda).

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

E'tirof

XITOYDA ÖZBEKISTON PREZIDENTI KITOBI NAŞR ETILDI

Pekin şahrida Prezident Şavkat Mirziyoyevning xitoy tilida çop etilgan "Özbekiston barqaror taraqqiyot va farovonlik yölida" kitobi taqdimoti bölib ötdi.



Tadbirda XXR vazirlik va idoralari, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-akademik, ekspert va işbilarmon doiralari, yetakçi ommaviy axborot vositalari, xorijiy diplomatik korpus rahbarlari qatnaşdi.

Xitoyning nufuzli "Jenmin" naşriyotida çop qilingan uşbu kitob 8 bobdan iborat bölib, "Özbekiston keng kölamli islohotlar jarayonida", "Özbekiston va BMT", "Özbekiston va ŞHT", "Markaziy Osiyo – Özbekiston taşqi siyosatining ustuvor yönalişi" va boşqa mavzularni qamrab olgan.

Kitobda Özbekiston Prezidentining Yangi Özbekistonni barpo etiş doirasida mamlakatda amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlar, içki hamda taşqi siyosat masalalariga bağişlangan nutq va ma'ruzalari, şuningdek, davlatimiz rahbarining xorijiy ommaviy axborot vositalarida çop etilgan intervyu va maqolalari jamlangan.

Taqdimotda **Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qömitasi Xalqaro aloqalar bölimi mudiri Lyu Xaysin** öz mamlakatida Prezident Şavkat Mirziyoyev kitobining naşr etilişini har tomonlama strategik şeriklik örnatilganining ön yilligi nişonlanayotgan yildagi muhim voqea sifatida baholadi.

Lyu Xaysinning fikriçа, 2027-yil 2-yanvar kuni nişonlanadigan diplomatik munosabatlar örnatilganining 35 yilligi arafasida Pekin Özbekistonning mustaqil taraqqiyot va keng kölamli modernizatsiya yölini bundan buyon ham qöllab-quvvatlaşga tayyor. Xitoy tomoni yangi mamlakat qurilişini siyosiy işonçni mustahkamlaş va özaro manfaatli hamkorlikni kengaytiriş uçun imkoniyatlar oçadigan muhim jarayon sifatida köradi.

Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qömitasi Tarğibot bölimi mudiri örinbosari Xon Dayon uşbu kitobning çop etilişini Özbekiston – Xitoy gumanitar aloqalari rivojidagi yirik voqea deb atadi. Uning ta'kidlaşiça, ikki davlat yetakçilari rahbarligida özaro munosabatlar izçil ravişda yanada yuqori darajaga kötarilib bormoqda, madaniy va intellektual muloqot esa bu jarayonga alohida teranlik bağişlamoqda.

ŞHT Boş kotibi örinbosari Pyao Yanfanning aytişiça, davlat rahbarining kitobi Yangi Özbekiston qiyofasini şakllantirayotgan keng kölamli özgarişlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tölaqonli hamda har tomonlama anglaş uçun muhim manba sanaladi.

Xitoylik ekspertlar, jamoatçilik doiralari vakillari va keng kitobxonlar ommasi uçun uşbu kitob Özbekistonning zamonaviy taraqqiyoti haqida qimmatli bilim manbai hisoblanadi.

«Dunyo» AA.
Pekin

YANGI ÖZBEKISTON FALSAFASI

yurtdoşlarimiz tafakkuri, hayot tarzi va qaraşlarida inqilob yasamoqda

Biz millat ölaroq yaşaş tarzimizni, hayotga qaraşimizni özgartirganimizga hali köp bölgani yöq. Aniqroği, yangiça yaşay boşlaganimizga atigi ön yil töldi, xolos. Binobarin, Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev tomonidan inson qadrini uluğlaş, uning bugungi hayotidan roziligini ta'minlaş yölida yuritilayotgan xalqçil islohotlar yurtdoşlarimiz tafakkurida inqilob yasamoqda. Şu ma'noda, Qudratilla Rafiqovning tafakkur ozodligi haqidagi mulohazalariga töliq qöşiliş mumkin.

Aks sado

Siyosatşunosning yaqinda matbuotda e'lon qilingan "Şavkat Mirziyoyev inqilobi yoxud men nima uçun Prezidentim bilan ğururlanaman?" nomli publitsistik-essesida "davlatimiz rahbari **"Bugungi Özbekiston – keçagi Özbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham keçagi xalq emas"** der ekan, bevosita odamlarimiz ongi tezroq özgarişiga işora qiladi. Haqiqat şundaki, bir asrdan ortiq davr mobaynida tafakkurlarimizga singdirilgan qaramlik ta'siridan çiqib ketişimiz oğir keçayotir. Nafaqat iqtisodiyot va siyosatda, balki kundalik turmuşimiz, madaniyatu yuriş-turişimizda ham keçagi kun "an'ana"lari sezilib turadi. Va bu jarayonlar bizning "özimiz"dan ançа nari ketib qolganimizni anglatadi" deya eng nozik masala mohiyati lönda qilib oçib berilgani bilan alohida ahamiyatga ega. Darhaqiqat, ta'lim, ilm-fan va sportga körsatilayotgan e'tibor va yangilanişlardan, eng avvalo, xalqimiz ongida buriliş yasaş, tafakkuridagi qaramlik iskanjasidan ozod etiş maqsadi közlangan. Bu esa oilalarda farzandlar kelajagiga munosabatda namoyon bölyapti. Ota-onalar öz dilbandlariga imkon boriça yaxşi bilim berişga intilib, buyuk ajdodlarimizga munosib avlod östiriş payidan bölmoqda. Bu esa oxirgi yillarda öz samaralarini körsata boşladi. Yoşlarimiz jahondagi fan olimpiadalarida, turli tanlovlarda, xususan, şaxmat singari sportning intellektual turlarida tarixda bölmagan yorqin natijalar körsatayotgani şunday deyişimizga asos böla oladi.

Bugun Yangi Özbekistonni barpo etişda hal qiluvçi muhim bosqiçdamiz. Buning uçun oxirgi yillarda mustahkam iqtisodiy asos yaratildi. Natijada xalqimiz qalbida mudrab yotgan yaratuvçilik qudrati uyğonib, bunyodkorlik salohiyati yaqqol namoyon böla boşladi.

Buyuk özgarişlar silsilasi

Yaqinda men ötgan asrning yigirmançi yillarida Germaniyaga öqişga ketib, keyinçalik Turkiya universiteti professori bölgan vatandoşimiz Ahmadjon Ibrohimning (Öqay, Germaniyada Kurt Okay) Amir Temur haqida yozgan "Metin Temur" kitobini öqir ekanman, şunday tugal fikrga keldim: davrlarni boğlovçi öxşaşlik – tarixda buyuk özgarişlar va taraqqiyotga erişgan davlatlarning rivojlanişida çuqur öylangan islohotlar, yangiça tafakkur va qat'iy harakat hal qiluvçi ahamiyat kasb etgan.

Asarda Amir Temur davrida amalga oşirilgan islohotlar davlat hayotining turli sohalarini qamrab olgani, ularning özaro boğliqligi esa mamlakatning har tomonlama rivojlanişi uçun zamin yaratgani tarixiy dalillar asosida mohirona tasvirlangan. Şu ma'noda, bugungi Özbekistonda amalga oşirilayotgan islohotlarni kuzatar ekanmiz, tarixiy jarayonlar bilan muayyan öxşaşliklarni yaqqol köriş mumkin. Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev taşabbusi bilan mamlakatimizda davlat boşqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, raqamlaştiriş, tadbirkorlik va xalqaro hamkorlik sohalarida keng kölamli özgarişlar amalga oşirilmoqda.

2

ERIŞILGAN YUTUQLAR ÇEGARA EMAS

Sönggi yillarda mamlakatimizda amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlar natijasida huquqiy davlat barpo etiş, qonun ustuvorligini ta'minlaş va inson huquq hamda erkinliklarini işonçli himoya qiliş davlat siyosatining ustuvor yönalişiga aylandi.

Yuksaliş odimlari

Uşbu jarayonlarda qonunçilik tizimini takomillaştiriş bilan bir qatorda, ularning amalda samarali işlaşi, davlat organlari faoliyati şaffofligi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaşga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada qonun ustuvorligi jamiyatda adolatni qaror toptiriş, davlat hamda xalq örtasidagi işonçni mustahkamlaşning muhim omili sifatida namoyon bölmoqda. Bu esa huquqiy davlat ğoyasining nazariy tamoyildan davlat boşqaruvi va ijtimoiy hayotning amaliy mezoniga aylanib borayotganini körsatadi.

Ta'kidlaş joizki, yangi tahrirdagi Boş qomusimizning eng muhim qoidalaridan biri, şubhasiz, Özbekiston Respublikasining huquqiy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomining mustahkamlanganidir.

4

IQTISODIY INTEGRATSIYA VA MUŞTARAK TARAQQIYOT SARI

Bugungi şiddat bilan özgarayotgan global siyosiy va geoiqtisodiy voqelik şaroitida dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan parçalaniş va inqirozlar fonida Markaziy Osiyo tamomila aks yönalişda – jipslaşiş, özaro işonç va tizimli iqtisodiy integratsiya yölida bormoqda. Yaqin-yaqingaça çegara, suv, bojxona va transport tösiqlari tufayli tarqoq bölgan mintaqa bugun yagona iqtisodiy makon, jozibador investitsiya xabi va xalqaro tranzit çorrahasiga aylanmoqda.

Nuqtai nazar

Bu Turkmanistonning "Avaza" milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinçi Maslahat uçraşuvida ham yaqqol namoyon böldi. Uşbu muloqot mintaqada özaro işonç va yaxşi qöşniçilik tamoyillariga asoslangan aloqalar tobora çuqurlaşib, yangi mazmun bilan boyib borayotganini körsatdi. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning mazkur nufuzli anjumanda iştiroki esa mamlakatimizning mintaqaviy hamkorlik jarayonlaridagi faol va konstruktiv pozitsiyasining yana bir amaliy ifodasi böldi.

Davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyodagi siyosatini mamlakatimizda amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlardan ayri holda tasavvur etib bölmaydi.

4

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 3-noyabr

MEHNAT MIGRATSIYASI: MUNOSIB IŞ, KAFOLATLI DAROMAD VA IŞONÇLI HIMOYA

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Mamlakatimiz yetakçisi amaliy simulyatsiya xonalarida kommunal va quriliş sohalariga oid maşğulotlarni közdan keçirdi. Bu yerda tinglovçilar iş joyiga yaqinlaştirilgan şaroitda kasbiy könikmalarini mustahkamlaydi. Jumladan, santexnika va elektr tizimlari bilan işlaş örgatiladi, payvandçilar “ISO 9606” xalqaro standartlari asosida tayyorlanadi. Öquv jihozlari Germaniya, Xitoy va Rossiyadan keltirilgan.

Şundan söng davlatimiz rahbari imtihon xonalarini kördi. Markazda tinglovçilarni xalqaro til sertifikatlariga tayyorlaşga e’tibor qaratilib, SD, TELC, J-CERT va EPS TOPIK imtihonlarini topşiriş imkoniyati yaratilgan.

– Ingliz tiliga qanday imtiyoz bergan bölsak, nemis va yapon tillarini ham şunday örgatamiz. Maktabni tugatgandan keyin kafolatli iş joyiga ega bölişi uçun tilni ham, kasbni ham maktabdayoq örgatişimiz kerak, – dedi Prezidentimiz.

Tayyorgarlik xorijlik hamkorlar bilan birgalikda olib borilmoqda. “Proud Partners”, “Onodera User Run”, “Deutsçe Bahn”, “RecruitMed GmbH”, “PentaHospital” kompaniyalari va Perudjia universiteti iştirokidagi loyihalar fuqarolarni iş beruvçilar talabiga mos öqitiş va işga joylaştirişga kömaklaşişga qaratilgan.

Tinglovçilar uçun kovorking, sport maydonçalari va dam oliş hududlari ham taşkil etilgan. Markazda 40 nafar mahalliy xodim va öqituvçi, şuningdek, 6 nafar xorijlik til öqituvçisi faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari çet ellik iş beruvçilar ehtiyojidan kelib çiqib, nomzodlarni saralaş, til va kasbga öqitiş hamda işga joylaştirişga kömaklaşişni birlaştirgan uşbu tajribani boşqa hududlarda ham joriy etiş yuzasidan tavsiyalar berdi.

Şundan söng Prezident Şavkat Mirziyoyev mehnat migratsiyasi hamda xorijda işlaş istagidagi aholini til va kasblarga maqsadli öqitiş masalalariga bağişlangan yiğiliş ötkazdi.

Jahon mehnat bozoridagi talab özgarib bormoqda. Bugun dunyoda 168 million kişi xorijiy mehnat migratsiyasida. Bir tomondan, mamlakatimizda çet elda işlaş istagidagi fuqarolar bor, ikkinçi tomondan, qator davlatlarda malakali işçi kuçiga ehtiyoj ortib bormoqda. Davlatimiz rahbari uşbu imkoniyatlarni özaro boğlaş, fuqarolarni aniq iş örinlariga tayyorlaş zarurligini ta’kidladi.

Sönggi yillarda tartibli mehnat migratsiyasi böyiça hamkorlik kölami kengaydi. Ilgari mazkur yönalişda uçta davlat bilan iş olib borilgan bölsa, hozir ularning soni 27 taga yetdi. Hamkorlik qilayotgan yirik xorijlik iş beruvçilar soni qariyb 400 taga köpaydi. Çet elda işlayotgan yurtdoşlarimiz soni ön yilda ikki baravar kamaygan bölsa-da, ularning oilalariga yuborayotgan mablağlari tört karra oşdi. Bu fuqarolarning yuqori malakali va daromadli işlarga joylaşişi naqadar muhimligini körsatadi.

Biroq hududlar natijalari örtasida katta tafovut saqlanmoqda. Xorijda işlayotgan bir kişiga töğri keladigan örtaça oylik pul ötkazmasi Farğonada 1 850 dollar bölsa, ayrim hududlarda 400 dollarga ham yetmaydi. Hokimlar, elçilar va texnikum rahbarlari fuqarolarni yuqori daromadli işlarga tayyorlaş böyiça faoliyatini qayta körib çiqişi zarurligi körsatib ötildi.

Germaniya, Turkiya, Slovakiya va Qatarda iş beruvçilarni texnikumlar bilan boğlaş böyiça ijobiy misollar bor. Boşqa mamlakatlardagi elçilar ham mehnat bozori imkoniyatlarini aniq iş örinlari va kadrlar tayyorlaş dasturlariga aylantirişi lozimligi qayd etildi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodan mutaxassislarni jalb etiş masalasini ilk bor migratsiya strategiyasiga kiritgan. Buyuk Britaniyada ham 33 ming işçiga ehtiyoj bor. Şunga qaramay, bu mamlakatga yurtdoşlarimiz asosan qişloq xöjaligidagi mavsumiy işlarga bormoqda. Tibbiyot, logistika va sanoat sohalarida iş beruvçilar bilan aniq kelişuvlarga erişiş, Italiya bilan mavjud imkoniyatlardan foydalaniş, şuningdek, “Yoşlar mobilligi” dasturida iştirok etiş masalasini hal qiliş vazifasi qöyildi.

Prezidentimiz çet tillarini biliş yuqori daromadli iş topişning asosiy şartlaridan biri ekaniga e’tibor qaratdi. Mamlakatimizda ingliz tilini puxta örganib, sertifikat olgan 200 mingga yaqin yoşlar bor. Ularning AQŞ, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boşqa davlatlarda işlaşi uçun imkoniyatlarni kengaytiriş zarur.

Germaniyadan joriy yilning özida 45 ming mutaxassisga buyurtma kelib tuşgan, ammo atigi 2 ming kişi işga joylaşgan. Bunga nemis tilini biladigan kadrlar yetişmasligi sabab bölmoqda. Şu bois kasbiy ta’lim bilan til tayyorgarligini birga olib boriş, xorijlik iş beruvçilar buyurtmasini texnikumlardagi öquv dasturlari bilan boğlaş muhimligi ta’kidlandi.

Har bir viloyatdagi ikki-uçta texnikumda kasb bilan birga nemis tilini öqitişni yölga qöyiş vazifasi qöyildi. “Intil” xalqaro öquv markazida “Telc” kompaniyasi iştirokida 100 nafar nemis tili öqituvçisini tayyorlaş boşlangan. Kelasi yil ular hududlardagi texnikumlarga jalb qilinadi. Maktab va texnikumlar uçun yana 500 nafar nemis tili egasini olib keliş, oliy ta’lim muassasalarida nemis tili öqituvçilarini tayyorlaş böyiça davlat buyurtmasini ikki karra oşiriş belgilandi.

Viloyat hokimlarining birinçi örinbosarlari “Intil” markazi tajribasini örganib, kelasi yili har bir hududda yagona migratsiya markazini oçadi. Buning uçun har bir viloyatga 8 milliard sömdan ajratiladi. Kelasi yil 10 ming kişini kasb va nemis tiliga örgatib, Germaniyada işga joylaştiriş vazifasi qöyildi.

Yirik xorijiy kompaniyalar özlariga zarur mutaxassislarni Özbekiston texnikumlarida tayyorlaşga qiziqiş bildirmoqda. Şu asosda bir oy içida 20 ta texnikum tanlanib, ularning dasturlari xorijlik iş beruvçilar talabiga moslaştiriladi. Har bir viloyatdagi yana ikki-uçta texnikumni yirik tadbirkorlar boşqaruviga beriş, ular orqali yiliga kamida 30 ming nafar işga tayyor mutaxassis yetiştiriş rejalaştirilmoqda.

Bunday texnikumlar 15 yilga boşqaruvga beriladi, bitiruvçilar davlat namunasidagi malaka sertifikatini oladi. Kadr tayyorlaş va jihozlarga sarflangan mablağlarni soliqlardan çegiriş, xorijda yaxşi işga joylaşgan bitiruvçilar uçun grant ajratiş közda tutilmoqda.

Yiğilişda xususiy bandlik agentliklari faoliyati ham tahlil qilindi. Litsenziya beriş tartibi soddalaştirilgaç, ikki yilda ularning soni uç baravar, agentliklar orqali xorijda işga joylaşganlar soni beş karra ortdi.

Kelasi yil fuqarolarni xorijga işga yuboriş vazifasi xususiy sektordagi işonçli bandlik agentliklariga ötkaziladi. Yuqori daromadli işga joylaştirilgan har bir fuqaro uçun ularga 1,5 million sömdan rağbat puli tölanadi. Agentliklarning oçiq reytingi yuritilib, işga joylaşiş natijasi, fuqarolar huquqlarining himoyasi va ijtimoiy kafolatlar asosiy mezon böladi.

Joriy yilning özida 34 ta davlatda 287 ming kişini işga joylaştiriş imkoniyati mavjud, biroq bu haqda fuqarolarga yetarli ma’lumot yetkazilmayapti.

Endi xorijdagi har bir iş örni böyiça mutaxassisga qöyiladigan talab, zarur til va öqiş imkoniyatlari haqidagi ma’lumot mahallagaça yetkaziladi. “Mahalla yettiligi” çet elda işlaş istagidagi fuqarolarni “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Hokimlar va mas’ul taşkilotlar ularning kasb va tilga tayyorlanişi hamda işga joylaşişiga javob beradi. Viloyat hokimlari bu boradagi natijalarni har oy, tuman hokimlari esa oyiga ikki marta körib çiqadi.

Elçilardan iş beruvçilar bilan kelişuv tuziş bilan çeklanmasdan, kvotalar, işçi vizalari va malakani tan oliş masalalarini iqtisodiy diplomatiya orqali hal etiş talab qilindi. Ular hokimlar bilan birga fuqarolarning işga joylaşişi va yangi muhitga könikişigaça bölgan jarayon uçun mas’ul böladi.

Xorijda mehnat qilayotgan yurtdoşlarimizning huquqlarini himoya qiliş masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Endi qiyin vaziyatga tuşgan fuqaro “Onlayn mahalla” platformasida xabar qoldirişi mumkin. Zarur hollarda elçining özi uning muammosi bilan şuğullanadi. Hokimlarga esa xorijda işlayotganlarning oilalari, ota-onalari va farzandlarini qöllab-quvvatlaş vazifasi qöyildi.

– Çet elda mehnat qilayotgan birorta yurtdoşimiz öz muammosi bilan yolğiz qolmasligi kerak, – dedi davlatimiz rahbari.

Yiğilişda mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligi masalasi ham körib çiqildi. Yil boşidan buyon 1 million 116 ming kişi qaytgan. Ularning orasida xorijda sanoat, quriliş, logistika va xizmat körsatiş sohalarida tajriba orttirgan mutaxassislar bor. Hokimlar va tarmoq rahbarlari ularning salohiyatidan foydalanib, munosib iş taklif etişi zarurligi qayd etildi.

Buning uçun qaytgan fuqarolarning işlagan joyi, kasbi va staji aks etadigan platforma yaratiladi. Yil yakunigaça ularning 250 ming nafariga mos iş topiş, tadbirkorlik qilişni istaganlarga kömaklaşiş vazifasi belgilandi.

Xorijda orttirilgan iş staji va pensiya huquqini tan oliş masalasiga ham töxtalindi. Bugun yurtdoşlarimiz 40 dan ziyod davlatlarda qonuniy işlab, pensiya badallarini tölayapti. Joriy yil Qirğiziston, Ozarbayjon va Turkiya bilan bu borada ikki tomonlama bitimlar imzolangan. Fuqarolarimiz köp mehnat qilayotgan boşqa davlatlar bilan ham şunday kelişuvlarga erişiş topşirildi.

Mamlakatimizga kelayotgan xorijiy işçi kuçini tartibga soliş ham muhokama qilindi. Özbekistonda uzoq muddat yaşayotgan çet elliklar soni 250 mingga yaqinlaşgan. Ulardan 36 ming nafari işlaşga ruxsatnoma olgan, 24 ming nafari talaba. Qolganlarning bandligi va daromad manbalari haqida aniq ma’lumot bölişi zarurligi körsatib ötildi. Şuningdek, yangi iş örinlariga, birinçi navbatda, özimizning fuqarolarni joylaştiriş muhimligi ta’kidlandi.

Yiğiliş davomida sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan muloqot qilindi, hududlar rahbarlarining axboroti tinglandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Marhabo HOJIAKBAROVA,
ÖzA muxbirlari.

YANGI ÖZBEKISTON FALSAFASI

yurtdoşlarimiz tafakkuri, hayot tarzi va qaraşlarida inqilob yasamoqda

1

Bu jarayonlarning muhim jihati şundaki, islohotlar alohida sohalar bilan çeklanib qolmay, davlat va jamiyat hayotining köplab yönalişlarini qamrab olmoqda.

Tarixiy va bugungi jarayonlarni boğlaydigan asosiy öxşaşliklar sifatida quyidagilarni alohida sanab ötiş mumkin:

– yangiça davlat tafakkuri – eski yondaşuvlardan voz keçib, zamonaviy taraqqiyot talablariga mos boşqaruv tizimini şakllantiriş;

– iqtisodiy özgarişlar – mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oşiriş, yangi imkoniyatlar va investitsiyalar uçun şaroit yaratiş;

– ilm-fan va ta’limga e’tibor – taraqqiyotning asosiy kuçi bilim, innovatsiya va intellektual salohiyat ekanini anglaş;

– inson manfaatlarining ustuvorligi – davlat rivojlanişining asosiy maqsadi inson hayotini yaxşilaş, uning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirişdan iborat bölişi;

– xalqaro oçiqlik va hamkorlik – mamlakatning jahon hamjamiyati bilan aloqalarini kengaytiriş va global taraqqiyot jarayonlarida faol iştirok etiş.

Albatta, har bir tarixiy davrning öz şaroiti, muammolari hamda taraqqiyot yöli bor. Şuning uçun tarixiy şaxslar va bugungi davlat rahbarlari faoliyatini aynan bir xil deb baholaş töğri bölmaydi. Ammo ularni birlaştiruvçi muhim jihat bor, u ham bölsa islohotlar orqali davlatning yangi taraqqiyot bosqiçiga ötişi ğoyasidir.

Menimça, tarixning eng muhim saboqlaridan biri şu: davlatning buyukligi faqat uning tarixi bilan emas, balki bugungi özgarişlari va kelajak avlod uçun yaratayotgan imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Özbekistonning hozirgi taraqqiyot yöli ana şu tarixiy saboqlar nuqtai nazaridan alohida e’tiborga loyiqdir.

Nozik masalaga oqilona yeçim

Yangi Özbekistonni bunyod etişning ayni bosqiçida har bir soha va tarmoqni çuqur transformatsiya qiliş işlariga jadal kirişilgani holda, eng katta “portlaş” quriliş jabhasida yuz berayotganini e’tirof qiliş joiz. Bu hodisa öz-özidan röy bergani yöq, albatta. Aholining talab-ehtiyojlari va uy-joy bozoridagi real holatdan kelib çiqib iş tutilgani tufayli ana şunday sifat özgarişlari qölga kiritilyapti.

Statistik ma’lumotlarning körsatişiça, yangi davrda 650 mingdan ziyod oilalar zamonaviy uy-joyga ega bölgan. Birgina 2025-yilda 8 million 100 ming kvadrat metr köp qavatli uylar qurilib, aholi ixtiyoriga berildi.

Siyosatşunos Qudratilla Rafiqov bu galgi çiqişida turarjoylar quriliş masalasi haqida söz yuritar ekan, “birgina ötgan asrning 40 – 70-yillarida Toşkentda amalga oşirilgan me’morçilik nafaqat quruvçilik, balki siyosat darajasidagi masalaga aylanganini zukko odamlar yaxşi bilişadi”, deya ziyoli qatlam dilining tubidagi dardlarni olib çiqdi. Negaki, ötgan asrda olib borilgan bunyodkorlik işlari ham davlat siyosati va hukmron mafkuralarga xizmat qilgani aççiq haqiqat. Buning oqibatida poytaxtimizda, qolaversa, yangidan paydo bölgan Navoiy, Olmaliq, Angren, Uçquduq, Zarafşon, Guliston kabi önlab şaharlarda qurilgan qöp qavatli uylarni loyihalaştirişda milliy mentalitetimiz inobatga olinmagan. Özbekona hayot tarzimiz, rözğor yuritiş va hayotiy tutumlarimizga ters yondaşuv zamirida millatni özligidan uzoqlaştiriş ğoyasi yotganini keç angladik...



Uy-joy mavzusi dunyo böyiça eng nozik masala hisoblanadi. AQŞ, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya singari rivojlangan davlatlarda ham xususiy uy sohibi böliş orzusi armon bölib qolgan minglab taqdirlar, umrini ijarada ötkazayotgan bir neça avlodlar borligi oddiy haqiqat. Özbek xalqi uçun turarjoy şunçaki boşpana emas, u oila qörğoni, Vatan içidagi kiçik vatan, eng uluğ maskan sanaladi. Şuning uçun mustaqil hayotga qadam qöygan oila borki, öz uyi – ölan töşagi bölişini niyat qiladi. Ammo yaqin ötmişda uy-joy ta’minoti yumşoq qilib aytganda, eng oğriqli masalaga aylangan edi. Urbanizatsiya, bunyodkorlik işlari, ayniqsa, Toşkentdek megapolis şaharda juda sust edi. Mustaqillik yillarida bunyod etilayotgan sanoqli köp kvartirali uylar aholi talab-ehtiyojlarini ta’minlaşda urvoq ham bölmasdi. Bu hol, oxir-oqibat, ijtimoiy muammolarni keltirib çiqarganidan ham köz yuma olmaymiz. Bu gaplarni ortga toş otişga yöymaslik kerak. Aytmoqçi bölganimiz, aholi soni yiliga örtaça 2 foiz ösib borayotgan katta mamlakatda turarjoylar quriş işlari e’tibordan çetda qolib ketgan edi.

Prezidentimiz bu nozik masalani çuqur his qilib, bunyodkorlik işlarini, avvalo, şahar joylarda köp xonadonli arzon uylar, qişloqlarda namunaviy turarjoylar bunyod etişga e’tibor qaratdi. Bunda aholining barça qatlami imkoniyatlari inobatga olinib iş tutilgani bois ming-minglab oilalar vatanli böldi. Ayniqsa, ehtiyojmand, nogiron va boquvçisini yöqotgan oilalarga subsidiyalar ajratiş, imtiyozli ipoteka kreditlari beriş tartibi yölga qöyilgani ijtimoiy davlat tamoyilining amaldagi ifodasi böldi, deyiş mumkin. Bir umr öz uyiga ega böliş umidida yurgan oilalar quvonçini raqamlar va iqtisodiy körsatkiçlar bilan ifodalaşning imkoni yöq. Bu boradagi yagona mezon – odamlarning roziligi. Toşkent şahrini rivojlantiriş, hududlarni obod qiliş doirasida yangidan-yangi yaşaş mavzelari qurilişi asnosida ana şunday baxtga erişildi.

Ikki daryo oraliğidagi mö’jiza

Bugun Özbekistonda şiddatli bunyodkorlik ruhi hukmron. Davlatimiz rahbarining ğoyasi va taşabbusi bilan barpo etilayotgan Yangi Toşkent milliy şaharsozlikda yangilik sifatida Yangi Özbekiston gultojiga aylanmoqda.

Yuqori Çirçiq va Örta Çirçiq tumanlaridan ajratilgan qariyb 20 ming gektar yerda qad rostlaydigan bu şaharni “ikki daryo oraliğidagi mö’jiza” deb ataş mumkin. Yangi şahar uçun Çirçiq va Qorasuv daryolari oraliğidagi joy bejiz tanlangani yöq. Prezidentimiz şu haqda töxtalganida loyihani amalga oşiriş uçun tanlab olingan hudud dengiz sathidan 500 metr baland bölib, şaharga yaqinligi, öz iqlimi, bahavoligi va ikki daryo örtasida joylaşgani bilan noyob hisoblanişini, bu yer Xudoning xalqimizga in’omi ekanini alohida ta’kidlagan edi.

Bizningça, bu yer tanlanişida ham ramziy ma’no bor. Tarixiy manbalardan ayonki, “ikki daryo oraliği” şunçaki geografik hudud emas, balki insoniyat sivilizatsiyasining beşigi, davlatçilik, yozuv va ilm-fanga asos solingan, şahar madaniyati şakllangan markaz hisoblanadi. Şu ma’noda, Yangi Toşkent mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqiçi, Yangi Özbekistonning “taşrif qoğozi”ga aylanadi.

Toşkent şahrining 2045-yilgaça bölgan boş rejasi doirasida işlab çiqilgan Yangi Toşkent me’moriy falsafasi özida “aqlli”, ekologik toza “yaşil” şahar konsepsiyasini ifodalaydi. Uning ekologiyasi toza, havosi musaffo, iqlimi mö’tadil bölişiga alohida e’tibor qaratilgan. Boşqaça aytganda, Prezidentimiz ilgari surayotgan “Toşkentning yaşil belboği” loyihasi şu yerdan boşlanadi. Ya’ni 420 gektar maydonda Markaziy boğ barpo etiladi. Bu boradagi sa’y-harakatlar allaqaçon boşlab yuborilgan.

> *“Bizningça, bu yer tanlanişida ham ramziy ma’no bor. Tarixiy manbalardan ayonki, “ikki daryo oraliği” şunçaki geografik hudud emas, balki insoniyat sivilizatsiyasining beşigi, davlatçilik, yozuv va ilm-fanga asos solingan, şahar madaniyati şakllangan markaz hisoblanadi. Şu ma’noda, Yangi Toşkent mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqiçi, Yangi Özbekistonning “taşrif qoğozi”ga aylanadi.”*

Kişini quvontiradigan jihat şundaki, Yangi Toşkent hududining 23 foizi umumfoydalanişga möljallangan yaşil maydonlar uçun ajratilyapti. Bundan taşqari, qurilajak davlat taşkilotlari va idoralar, turarjoy majmualarining bir qismiga daraxt ekiş, yaşil maskanlar yaratiş talabi qöyilgan. Masalan, universitetlar hududining 50 foizi yaşil hududlar uçun ajratiladi. Bu Yangi Toşkent dov-daraxtlarga burkangan yaşil qiyofada gavdalanişidan darakdir.

Şahar arxitekturasida suv yöllari, irrigatsiya tarmoqlarining alohida örni bor, albatta. U nafaqat boğ-roğlar, yaşil hududlar, sanoat korxonalarini obihayot bilan ta’minlaydi, balki öz atrofida mikroiqlim hosil qilib, şaharning sölim va bahavo bölişni ta’minlaydi, majoziy qilib aytganda, şahar “öpkasi”ning havo yöllari sanaladi. Şu bois qadim-qadimdan şahar madaniyati daryo va suv yöllari özanlari atrofida şakllangan. Dunyodagi eng yoş poytaxt şaharlardan biri hisoblangan Ostona ham Işim daryosining söl sohilida vujudga kelganini eslaş kifoya, nazarimizda.

Şu jihatdan, Yangi Toşkent suv özanlari uçun juğrofiy tomondan ham juda qulay joylaşganini e’tirof etiş mumkin. U Çirçiq va Qorasuv daryolaridan suv içadigan sölim şaharga aylanadi. Yangi Özbekiston boş me’morining ğoyasiga köra, quriliş işlari jadal olib borilayotgan yangi innovatson markaziga tamal toşi qöyildi.

Nega aynan ilm-fan, ma’naviyat maskanlari? Savolimga javobni Prezidentimizning sözlaridan topdim: “Bular ma’rifatli jamiyat barpo etiş ğoyamizning asosi va namunasi böladi”.

Bu yerda reytingi yuqori xorijiy oliygohlar tajribasi asosida “boğça – maktab – universitet” zanjiridagi innovatsion ta’lim klasteri taşkil qilinadi. Şu asosda birinçilar qatorida 20 ming talabaga möljallangan öquv binolari, 5 ming örinli yotoqxona, 300 örinli boğça, 616 örinli maktab, 588 örinli akademik litsey, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boşqa obyektlarni öz içiga olgan Özbekiston Milliy pedagogika universitetining yangi kampusi qad rostladi. Ta’lim klasterining halqasiga yurtimizdagi eng nufuzli oliygohlardan biri bölgan Yangi Özbekiston universiteti ham qöşildi. Bu yerda universitetning 10 ming talabaga möljallangan öquv binolari, 1 150 örinli oşxona, kutubxona va ixçam muzey, sport majmuasi, olimpiya suziş havzasi barpo etilyapti.

Mustaqilligimizning 35 yilligi şodiyonalari arafasida Yangi Özbekiston universiteti, Nizomiy nomidagi Özbekiston Milliy pedagogika universiteti, Özbekiston Milliy kutubxonasining muhtaşam binolari, dunyodagi eng baland musiqali favvora sifatida “Ginnesning rekordlar kitobi”dan joy olgan ulkan favvora işga tuşirildi. Bu yilgi mustaqillik bayrami uşbu muhtaşam kentda ötkazildiki, bu siyosatşunos Qudratilla Rafiqov kuzatişlariga tayanib “davlat rahbari qurilayotgan uşbu şaharni nafaqat odamlar istiqomat qiladigan zamonaviy bir megapolis, balki yangi dunyo, yangiça tafakkur va ozod odamni ifodalovçi tarixiy bir ğoya timsoli sifatida körişini men juda köp bor sezganman”, deya aytgan sözlarining amaliy in’ikosidir.

Zamonaviy özbek me’morçiligining yorqin namunasi

Jahon şaharsozligi tajribasiga nazar taşlaydigan bölsak, şaharning markaziy qismi asosiy öq böylab magistral köçalarga ega radial uslubdan kengroq foydalaniladi. Bu an’ana miloddan avvalgi II asrda şakllangan bölsa-da, XV – XVIII asrlarda ommalaşgan. Pirovardida Yevropaning köplab davlatlaridagi yirik şaharlar aynan şu arxitektura asosida qurildi. U mohiyatan har bir şaxs özida kerakli xizmatlarga eng qisqa yöl bilan yetib oliş imkoniga ega bölişga qaratilgan.

Sanoat inqilobidan keyin şaharsozlikda transport harakatlanişiga qulaylik yaratiş maqsadida şaxmatli uslubdan foydalana boşlandi va uning katak-diagonal şakli rivojlandi. Bunga Barselona va Vaşington misol böla oladi. Qiziq tomoni şundaki, uşbu ikkala şaharda ham şaxmat kataklari şaklida joylaşgan mavzelarni diagonal köçalar kesib ötadi.

Davlatimiz rahbari qadimiy va zamonaviy şaharlar arxitekturasi, milliy me’morçilik maktabining çuqur tahlili asosida yaratilayotgan Yangi Toşkent, eng avvalo, odamlar yaşaşi uçun qulay makon bölişi kerak, degan ğoyani ilgari surdi. Şundan kelib çiqqan holda, an’anaviy va innovatsion şakllar uyğunlaşuvida mintaqamiz uçun tamomila yangilik böladigan me’moriy yeçimga kelindi. Bu 15 daqiqalik şahar konsepsiyasini joriy etiş imkonini beradi. Natijada odamlar maktab va bolalar boğçalari, savdo markazlari va dökonlar, şifoxona va poliklinikalar kabi muhim ijtimoiy soha obyektlari, şuningdek, ma’muriy binolar va jamoat transportlari bekatlariga piyoda uzoği bilan 10 – 15 daqiqada yetib oladi.

Yangi Toşkent XXI asr zamonaviy özbek me’morçiligining yorqin namunasi ölaroq, Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning quriliş va bunyodkorlik sohasida qilgan inqilobidir. Buning kölami naqadar keng, miqyosi esa qançalik ulkanligi hozirgi şiddatli özgarişlar jarayonida közga u qadar taşlanmasligi tabiiy. Biroq döppini boşdan olib, yurtimizdagi yangilanişlarga çetdan turib boqsang, çinakam millat farzandi qurayotgan Yangi Özbekiston falsafasini, u xohlayotgan yuksalişlar mohiyatini anglay boşlaysan, kişi. Bu öz tafakkur ziyosi bilan dunyo ilm-fanini rivojlantirgan, ikki Uyğonişga turtki bergan buyuk allomalarning avlodlari bugun ham har bir sohada yetakçi bölişi, baxtli va farovon hayot keçirişi, mamlakatimizni esa jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kötarişga qodir ekanligidan röyirost nişonadir.

Şavkat AYUPOV,
Özbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti,
Özbekiston Qahramoni.

Turkiyaning Pegasus Airlines loukoster (arzon) aviakompaniyasi Özbekistonning Andijon, Buxoro va Termiz şaharlariga muntazam qatnovlarni yölga qöyişni rejalaştirmoqda.

Konferensiya

TIBBIY TA‘LIM, FAN VA AMALIYOT UYĞUNLIGI – DAVR TALABI

“Central Asian University” tomonidan taşkil etilgan “Şifokor yöli: ta’lim, kamolot va innovatsiyalar” mavzuida xalqaro konferensiya bölib ötdi.

Dunyoning yetakçi olimlari, tibbiyot sohasi mutaxassislari hamda xalqaro ekspertlar iştirok etgan anjumanda tibbiy ta’lim, fan va amaliyot integratsiyasini çuqurlaştiriş, innovatsion texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalaniş masalalari muhokama qilindi.

Unda Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi raisi örinbosari Oral Ataniyazova iştirok etdi hamda mamlakatimizda oliy tibbiy ta’limni rivojlantiriş, malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlaş va sohada xususiy sektor iştirokini kengaytiriş uçun yaratilayotgan imkoniyatlarga alohida töxtaldi. “Central Asian University” misolida mamlakatimizda xususiy oliy tibbiy ta’lim rivojlanayotgani, universitetda zamonaviy ta’lim va tibbiy amaliyot uçun zarur şaroitlar yaratilgani, şuningdek, xalqaro hamkorlik izçil kengayib borayotgani ta’kidlandi.

Konferensiya doirasida dunyoning 20 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan talabalar iştirokida “Kelajak tibbiyoti” xalqaro olimpiadasi ham ötkazildi. Mazkur tanlov yoşlarning kasbiy salohiyatini namoyon etiş, bilim va tajriba almaşiş hamda xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlaş uçun muhim maydon böldi.

Tadbirda universitetni rivojlantiriş rejalari, jumladan, 500 mingdan ziyod aholiga bepul tibbiy xizmat körsatiş imkonini beruvçi ijtimoiy klinika taşkil qiliş taşabbusi e’tirof etildi.

Senat qömitasida

XALQARO INDEKSLAR – MAMLAKAT QIYOFASI KÖZGUSI

Oliy Majlis Senatining Yoşlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qömitasi majlisida Jahon iqtisodiy forumining “Global gender tafovuti – 2026” indeksida Özbekistonning natijalari, ularga ta’sir etayotgan omillar hamda mavjud muammolarni bartaraf etiş çoralari muhokama qilindi.

Unda asosiy e’tibor nafaqat mamlakatning reyting darajasini yaxşilaş, balki xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiriş, mehnatiga munosib haq tölanişini ta’minlaş, rahbarlik lavozimlaridagi iştirokini oşiriş va salomatligini muhofaza qilişga qaratildi.

Xotin-qizlarning mehnat bozoridagi iştirokini oşiriş ustuvor vazifalardan biri sifatida körsatildi. Bu borada, ayniqsa, kiçik yoşdagi farzandi bor ayollarning işga qaytişi uçun qulay şaroit yaratiş, parvariş xizmatlarini kengaytiriş va bandlikka tösqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etiş masalalari körib çiqildi.

Şuningdek, ayollar va erkaklar örtasidagi iş haqi tafovutlarini korxona hamda tarmoqlar kesimida tahlil qiliş zarurligi qayd etildi.

Majlisda xotin-qizlarni rahbarlik, professional va texnik lavozimlarga keng jalb qiliş, ularning yuqori texnologiyali sohalardagi iştirokini oşiriş, ayollar salomatligiga oid körsatkiçlarni hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida çuqur örganiş masalalariga ham urğu berildi. Öz navbatida, indeks xalqaro taşkilotlar ma’lumotlari asosida şakllantirilişini inobatga olib, milliy körsatkiçlarni tegişli bazalarga işonçli, töliq va öz vaqtida taqdim etiş, bu jarayonda mas’ul vazirlik va idoralar örtasidagi hamkorlikni kuçaytiriş muhimligi aytildi.

Senator sörovi

MUROJAATDAN NATIJAGAÇA

Senator sörovi – parlament nazoratining qoğozda qolib ketmasligi, qonunlar ijrosini hayot bilan uyğunlaştiriş, davlat idoralari faoliyatida oçiqlik va hisobdorlikni ta’minlaşda muhim ahamiyatga ega.

Zero, har bir sörov zamirida muayyan muammoni aniqlaş, sabablarini örganiş va yeçimini topiş maqsadi mujassam. Uning natijasi esa rasmiy javobning mazmuni bilan emas, balki odamlar turmuşida yuz bergan ijobiy özgarişlar bilan baholanadi.

Oliy Majlis Senatining Yoşlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qömitasi a’zosi Aksavli Tumişova fuqarolar murojaatlari asosida “Döstlik” va “Şarq” boğdorçilik jamiyatlari hududidagi dala hovlilarni elektr energiyasi bilan ta’minlaş, bu yerdagi uzatiş tarmoqlarining texnik holatini yaxşilaş, aholini barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlaş yuzasidan senator sörovi yuborgan edi.

Zarafşon şahar elektr ta’minoti korxonasi senator söroviga javob yölladi. Unda bayon qilinişiça, mazkur hududlardagi dala hovlilar 2026-yil iyun oyida Zarafşon şahar elektr ta’minoti korxonasi balansiga qabul qilingan. Şuningdek, joriy yilning 19 – 26-oktyabr kunlari uşbu hududlarni elektr energiya bilan ta’minlovçi 0,4 kV kuçlanişli havo elektr uzatiş tarmoqlarida töliq ta’mirlaş işlari amalga oşirilgan.

Şu tariqa senator sörovida kötarilgan masala amaliy yeçim topdi.

«Xalq sözi».

Munosabat

INSON MANFAATI – BOŞ MEZON

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev raisligida mehnat migratsiyasi hamda xorijda işlaş istagidagi aholini til va kasblarga maqsadli öqitiş masalalariga bağişlab ötkazilgan yiğilişda belgilangan ustuvor vazifalar nihoyatda dolzarb va strategik ahamiyatga ega.



Yiğilişda mehnat migratsiyasiga faqat xorijga işçi kuçini yuboriş masalasi sifatida emas, balki fuqarolarning kasbiy salohiyatini yuksaltiriş, ularni munosib iş örinlariga joylaştiriş, daromadlarini oşiriş va ijtimoiy himoyasini ta’minlaşga qaratilgan yaxlit tizim sifatida yondaşildi.

Bugun xorijiy mehnat bozorida raqobatbardoş böliş uçun işçidan muayyan kasbni puxta egallaş, xorijiy tilni biliş, zamonaviy texnologiyalar bilan işlay oliş va kasbiy malakaga ega böliş talab etilmoqda. Şu bois yurtimizda 20 ta texnikumni tanlab, ularning öquv dasturlarini xorijiy iş beruvçilar talablariga moslaştiriş, har bir hududdagi ayrim texnikumlarni yirik tadbirkorlar boşqaruviga beriş taşabbuslari ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali ta’lim muassasalarida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy könikma va mehnat bozorida talab yuqori bölgan mutaxassisliklarni şakllantiriş imkoniyati ham kengayadi.

Yiğilişda har bir viloyatda yagona migratsiya markazlarini taşkil etiş, buning uçun hududlarga 8 mlrd. sömdan mablağ ajratiş belgilandi. Mazkur markazlar fuqarolarga kasb örganiş, til tayyorgarligidan ötiş, xorijdagi iş örinlari haqida ma’lumot oliş va işga joylaşiş jarayonlarida kömaklaşadi. Bunday yondaşuv migratsiya sohasidagi xizmatlarni aholiga yanada yaqinlaştirib, fuqarolarning ortiqça sarsongarçiligi va axborot yetişmasligi bilan boğliq muammolarni kamaytirişga xizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasida eng muhim masalalardan biri – xorijda işlayotgan fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini himoya qiliş. Zero, inson öz yurtidan uzoqda mehnat qilayotgan paytda huquqiy, ijtimoiy yoki maişiy muammolarga duç kelişi mumkin. Bunday vaziyatlarda uning yolğiz qolmasligi, davlat tomonidan zarur yordam va kömak olişi muhim.

Prezidentimiz tomonidan “Çet elda mehnat qilayotgan birorta yurtdoşimiz öz muammosi bilan yolğiz qolmasligi kerak” degan qat’iy talabning ilgari surilgani davlat siyosatining markazida inson qadri va manfaatlari turganini yana bir bor tasdiqlaydi. Elçilarning faqat iş beruvçilar bilan kelişuvlarga erişiş bilan çeklanmasdan, işçi vizalari, mehnat kvotalari, malaka sertifikatlarini tan oliş va fuqarolarning yangi muhitga moslaşuviga ham mas’ul bölişi belgilangani iqtisodiy diplomatiyaning amaliy ahamiyatini yanada oşiradi. Şuningdek, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarning oilalari, ota-onalari va farzandlarini qöllab-quvvatlaş vazifasining mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklatilişi ham ijtimoiy himoyaning uzviyligini ta’minlaşga xizmat qiladi.

Yiğilişda belgilangan vazifalar mehnat migratsiyasi sohasida yangi bosqiçni boşlab berişi bilan ahamiyatlidir. Eng muhimi, endi asosiy e’tibor fuqarolarni şunçaki xorijga yuborişga emas, ularni kasbli, huquqiy jihatdan himoyalangan va munosib daromad topiş imkoniyatiga ega mutaxassis sifatida tayyorlaşga qaratilmoqda. Inson qayerda bölişidan qat’i nazar, mehnati qadrlanişi va huquqlari işonçli himoya qilinişi kerak. Davlatimiz rahbari ilgari surayotgan yangi yondaşuvning eng katta mohiyati ham aynan şunda.

Öktamjon AXUNOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

MAQSAD – JAHON TALABIGA MOS KADRLAR TAYYORLAŞ

Malakali kadrlarga talab tobora ortib borayotgani jahon mehnat bozorining öziga xos xususiyatlaridan biri. Bu esa çet elda işlaş istagidagi fuqarolarimizni zamonaviy kasblar va xorijiy tillarga öqitiş, ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoşligini oşiriş taqozo etmoqda.

Prezidentimiz raisligida mehnat migratsiyasi hamda aholini kasb va tillarga maqsadli öqitiş masalalariga bağişlab ötkazilgan yiğilişda aynan şu vazifalarga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’kidlaş joizki, bugun mehnat migratsiyasi sohasidagi asosiy vazifa – fuqarolarni xorijga işga yuboriş bilan kifoyalaniş emas, muhimi, ularni munosib mehnat şaroiti, barqaror daromad va ijtimoiy kafolatlarga ega iş örinlariga tayyorlaş.

Yiğilişda keltirilgan ma’lumotlarga köra, tartibli mehnat migratsiyasi böyiça hamkorlik örnatilgan davlatlar soni 27 taga, xorijiy iş beruvçilar soni esa qariyb 400 taga yetgan. Bu şeriklik imkoniyatlaridan samarali foydalaniş uçun kadrlar tayyorlaş tizimini mehnat bozori talablariga moslaştiriş nihoyatda muhim.

Ayniqsa, Germaniyada 45 ming nafar mutaxassisga ehtiyoj mavjud bölsa-da, hozirça atigi 2 000 nafar yurtdoşimiz işga joylaşgani xorijiy tillarni örganiş qançalik muhimligini körsatadi. Şu bois texnikumlarda kasb bilan birga nemis tilini öqitiş, hududlarda yagona migratsiya markazlarini taşkil etiş va xorijiy iş beruvçilar talabiga mos öquv dasturlarini qöllaş böyiça belgilangan vazifalar amaliy natijalarga xizmat qilişi kutilmoqda. Ayni jarayonda esa yana bir jihatga e’tibor qaratiş zarur: yoşlarimizga faqat iş topib beriş emas, balki ularning kelgusida kasbiy ösişi va mehnat faoliyati davomida yangi bilimlarni egallaşi uçun ham şaroit yaratiş lozim. Bu esa ta’lim muassasalari, iş beruvçilar va xususiy bandlik agentliklari örtasidagi hamkorlikni kuçaytirişni talab etadi.



Yiğilişda xususiy bandlik agentliklari mas’uliyatini oşiriş, ularning oçiq reytingini yuritiş, fuqarolarni yuqori daromadli iş örinlariga joylaştirgan agentliklarni rağbatlantiriş mexanizmlari ham belgilab berildi. Bunda fuqarolarning huquqlari, mehnat şartnomalari va ijtimoiy kafolatlariga rioya etilişi asosiy mezon bölişi lozim. Şuningdek, xorijda mehnat qilayotgan yurtdoşlarimizning huquqiy himoyasi, ularning oilalarini qöllab-quvvatlaş hamda mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning tajribasidan mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalaniş masalalariga urğu qaratilgani e’tiborga molik.

Ayniqsa, xorijda işlab qaytgan fuqarolarning kasbi, mehnat staji va tajribasini aks ettiruvçi yagona platformani yaratiş, ularni iş bilan ta’minlaş va tadbirkorlik taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş borasidagi vazifalar inson kapitaliga investitsiya kiritişning muhim yönalişidir.

Qayd etiş joizki, belgilangan vazifalarning samarasi, avvalo, ularning hududlarda qanday amalga oşirilişi, fuqarolar hayotida ijobiy özgarişlar berişi bilan ölçanadi. Şu bois bu borada parlament va jamoatçilik nazorati, mas’ul taşkilotlarning hisobdorligi hamda natijadorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Şavkat ŞARIPOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

Fraksiyalar hayoti

INNOVATSION RIVOJLANIŞNING HUQUQIY KAFOLATI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunçilik palatasidagi fraksiyalarining yiğilişlari bölib ötdi. Ularda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga doir masalalar hamda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilişi rejalaştirilayotgan qator qonun loyihalari atrofliça körib çiqildi.

Tadbirkorlar uçun imkoniyatlar kengaymoqda

Tadbirkorlar va işbilarmonlar harakati – Özbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida Anqara şahrida bölib ötgan Turkiy davlatlar taşkilotining 13-sammitida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan muhim taşabbuslarning ahamiyati haqida söz yuritildi.

Deputatlar davlatimiz rahbarining uçinçi mamlakatlar bilan “Turkiy davlatlar taşkiloti plyus” formatidagi hamkorlikni yölga qöyiş, “Turkiy dunyo – 100” dasturini qabul qiliş, “Turkiy davlatlar logistika komplekslari tarmoği”ni taşkil etişga doir takliflari taşkilot doirasidagi aloqalarni kengaytiriş hamda uning xalqaro maydondagi nufuzini oşirişga xizmat qilişini ta’kidladi.

Sammit yakunida qabul qilingan Anqara deklaratsiyasi esa turkiy davlatlar örtasida qöşma loyihalarni amalga oşiriş, iqtisodiy aloqalarni rivojlantiriş va mintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytiriş uçun muhim asos bölişi urğulandi.

Yiğilişda yakka tartibdagi tadbirkorlarning lizing xizmatlaridan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirişga qaratilgan qonun loyihasining muhokamasi ham qizğin keçdi. Loyiha bilan lizing obyektini hisobga oliş tartibini takomillaştiriş taklif etilmoqda. Bu esa lizing obyektlarini hisobga olişda qulaylik yaratiş, hisob-kitoblarni aniq yuritiş va sohada şaffoflikni oşiriş imkonini beradi.

Qonun loyihasida lizing oluvçi yakka tartibdagi tadbirkor bölgan hollarda lizing obyekti lizing beruvçining balansida hisobga olinişi belgilab qöyilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari – Zafar Xudoyberdiyev, Saydullo Azimov va boşqalar qonun loyihasining ayrim moddalari yuzasidan aniqlaştiruvçi savollar berdi. Qonun taşabbuskorlari uşbu masalalar yuzasidan batafsil tuşuntiriş berib ötdi.

Fraksiya a’zosi Baxtiyor Artiqov qonun loyihasining dolzarbligi va uni qabul qiliş zaruratiga alohida töxtalib, hujjatni ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida qömita tomonidan amalga oşirilgan işlarni e’tirof etdi hamda deputatlarni qonun loyihasini qöllab-quvvatlaşga çaqirdi.

Yiğilişda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegişli qarorlar qabul qilindi.

Investitsiyaviy jozibadorlikni oşirişda qulayliklar

“Milliy tiklaniş” demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida “Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza va himoya qiliş tizimini takomillaştirişga qaratilgan özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Taşabbuskorlar qonun loyihasining zarurati haqida gapirib, mamlakatimizda ma’muriy tartib-taomillarni soddalaştiriş va investitsiyaviy jozibadorlikni oşirişga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillaştirişda sanoat mulki va mualliflik huquqi sohasidagi ayrim qoidalarni xalqaro amaliyotga muvofiqlaştiriş zarurati yuzaga kelayotganini ta’kidladi. Xususan, amaldagi “Mualliflik huquqi va turdoş huquqlar töğrisida”gi Qonunda xizmat vazifalari yoki xizmat topşiriğini bajariş vaqtida yaratilgan asar ön yildan söng muallifga qaytarilişi belgilangan. Endilikda qonun loyihasi bilan mazkur tartibni bekor qiliş taklif etilyapti.

Yiğilişda ta’kidlanganidek, Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qiliş töğrisidagi Bern konvensiyasi hamda Butunjahon intellektual mulk taşkilotining mualliflik huquqi bilan boğliq şartnomasida xizmat asari bölgan mulkiy huquqni belgilangan ma’lum vaqtdan söng muallifga qaytarişga oid qoida belgilanmagan. Uşbu masala tomonlarning kelişuviga havola qilingan. Bu borada xalqaro tajriba örganilganda AQŞ, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarda ham muallifning xizmat asariga bölgan mulkiy huquqlar faqat tomonlarning kelişuviga asosan belgilanişi körsatilgan.

Loyihada patentlarni öz kuçida saqlaş uçun belgilangan bojlarni oldindan beş yillik davr uçun tölaş imkoniyati ham yaratilmoqda. Şuningdek, intellektual mulk obyektlari böyiça davlat ekspertizasi qarorlaridan norozi bölgan şaxslarga bevosita sudga murojaat etiş huquqi berilişi orqali Konstitutsiyada belgilangan kafolatlangan sud himoyasi yanada mustahkamlanyapti, ma’muriy jarayonlar soddalaştirilyapti, huquqni himoya qiliş samaradorligi oşirilyapti.

Deputat Zuhra Mirğoziyevaning ta’kidlaşiça, mazkur özgarişlar intellektual mulk obyektlarini muhofaza va himoya qiliş tartiblarini takomillaştiriş, mahalliy va xorijiy investorlar uçun qulay şart-şaroit yaratiş hamda tadbirkorlarning bozorga kiriş imkoniyatlarini yanada kengaytirişga xizmat qiladi.

Muhokamadan söng qonun loyihasi qöllab-quvvatlandi.



Intellektual mulkni himoyalaş tizimi kuçaytiriladi

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida intellektual mulkni huquqiy muhofaza qiliş va himoyalaş tizimini takomillaştirişga qaratilgan qonun loyihasi körib çiqildi.

Muhokamada ta’kidlanganidek, bugungi kunda intellektual mulk obyektlari – mualliflik asarlari, dasturiy mahsulotlar, ixtiro va yangi işlanmalar iqtisodiyotning muhim resurslaridan biriga aylanmoqda. Şu bois ularni yaratuvçilarning huquqlarini işonçli himoya qiliş, intellektual faoliyat natijalaridan samarali foydalaniş uçun qulay huquqiy şaroit yaratiş dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qonun loyihasida qator muhim özgartişlar nazarda tutilgan. Jumladan, xodim xizmat vazifasini bajariş jarayonida yaratgan asar yoki dasturiy mahsulotga bölgan mulkiy huquqlarni belgilaşda iş beruvçi va muallif örtasidagi şartnoma asosiy mezon bölişi taklif etilmoqda. Amaldagi qonunçilikda nazarda tutilgan, asar e’lon qilinganidan keyin ön yil ötgaç, mulkiy huquqlarning muallifga avtomatik ötişiga oid qoida bekor qilinmoqda.

– Bugungi kunda intellektual mulk nafaqat ijodiy mehnat natijasi, balki iqtisodiy taraqqiyot va innovatsion rivojlanişning muhim omiliga aylanmoqda, – dedi fraksiya a’zosi Behzod Töxtamurodov. – Şu bois mualliflar, ixtiroçilar va tadbirkorlarning huquqlarini işonçli himoya qiliş, ularga öz manfaatlarini sud orqali himoya etiş imkoniyatini beriş dolzarb ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan özgartirişlar intellektual mulk sohasida huquqiy kafolatlarni kuçaytiriş, investitsiyaviy jozibadorlikni oşiriş va innovatsion faoliyat uçun yanada qulay muhit yaratişga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yangilik patentlarning amal qilişini saqlab turiş uçun davlat bojini tölaş tartibiga taalluqli. Endi patent egalari tölovni har yili amalga oşiriş bilan çeklanib qolmay, uni beş yillik davr uçun oldindan tölaş imkoniyatiga ega böladi. Bu patent egalari uçun qulaylik yaratib, öz vaqtida tölov qilinmagani sababli patentning amal qilişi tugatilişi holatlarini kamaytiradi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan savollar berib, tegişli javoblar oldi hamda öz takliflarini bildirdi. Fikr almaşinuvlar yakunida qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qöllab-quvvatlandi.

Aholiga yengillik beradigan takliflar qöllab-quvvatlandi

Özbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida dastlab yakka tartibdagi tadbirkorlarning lizing xizmatlaridan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirişga qaratilgan qonun loyihasi körib çiqildi.

Ta’kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi öz işini yölga qöygan, lekin faoliyatini kengaytiriş uçun qöşimça texnika, uskuna yoki transport vositasiga ehtiyoj sezayotgan tadbirkorlar uçun yangi imkoniyatlar yaratişni nazarda tutadi. Endilikda yakka tartibdagi tadbirkorlar ham lizingdan foydalanişda yuridik şaxslar kabi huquqqa ega bölişi mumkin. Şuningdek, loyihada lizing obyektiga bölgan egalik qiliş, undan foydalaniş va uni tasarruf etiş huquqlarini amalga oşiriş tartibi ham aniq belgilab berilmoqda.

Muhokama çoğida fraksiya a’zolari loyihaning ayrim normalarini takomillaştirişga oid takliflarni ilgari surdi. Xususan, fraksiya a’zolari – Şokirjon Ahmedov va Odiljon Iminov qonun loyihasining 7-moddasida közda tutilgan lizing obyektini hisobga oliş va röyxatdan ötkaziş tartibini belgilovçi huquqiy me’yorlar qonun loyihasining boşqa qismlarida ham takrorlanayotgani, şu bois unga tahririy tuzatişlar kiritiş lozimligini ta’kidladi. Bundan taşqari, uşbu moddaning birinçi va ikkinçi qismlarini alohida emas, balki bitta xatboşida birlaştirib, tahririy jihatdan takomillaştirilgan holda bayon etiş ham taklif qilindi.

Savol-javoblardan söng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qöllab-quvvatlandi.

Yiğilişda hududlarda çet el investitsiya loyihalarini amalga oşiriş jarayonlarini monitoring qiliş, investitsiyaviy samaradorlikni baholaş va investorlar bilan işlaş mexanizmlarini takomillaştiriş böyiça amalga oşirilayotgan işlar töğrisida investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining parlament söroviga javobi körib çiqildi. Berilgan javobga köra investitsiya loyihalari ijrosini raqamli monitoring qiliş, ularda yuzaga keladigan muammolarni öz vaqtida aniqlaş, maxsus iqtisodiy zonalar boşqaruvini takomillaştiriş hamda davlat kafolati ostida jalb etilgan xorijiy kreditlardan samarali foydalaniş böyiça tizimli işlar amalga oşirilmoqda.

Fraksiya a’zolari muhokama çoğida hududlarning mavjud salohiyati va ixtisoslaşuvidan kelib çiqib mahalliy korxonalar bilan kooperatsiyani kuçaytiriş lozimligini qayd etdi. Muhokamadan söng kun tartibidagi uşbu masala qöllab-quvvatlandi.

Migratsiya va personallaştiriş bölinmalari faoliyati takomillaştirilmoqda

Özbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yiğilişida migratsiya va personallaştiriş bölinmalari faoliyatini takomillaştirişga qaratilgan qonun loyihasi körib çiqildi.

Ta’kidlanganidek, qonun loyihasi bilan migratsiya va personallaştiriş bölinmalari faoliyatini takomillaştiriş, çet el fuqarolariga mehnat faoliyatini amalga oşiriş huquqini beruvçi tasdiqnomalarni rasmiylaştiriş tartibini takomillaştiriş nazarda tutilmoqda. Xususan, qonun loyihasiga muvofiq çet el fuqarolari va fuqaroligi bölmagan şaxslarning Özbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oşiriş huquqiga doir tasdiqnomalarni rasmiylaştiriş uçun Davlat xizmatlari markazlari bilan bir qatorda Içki işlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallaştiriş departamenti hamda uning hududiy boşqarmalariga ham murojaat qiliş imkoniyati yaratilmoqda. Şuningdek, qonun loyihasi bilan çet el fuqarolari va fuqaroligi bölmagan şaxslarni turgan joyi böyiça röyxatdan ötkaziş muddatlari aniqlaştirilmoqda.

Yiğilişda fraksiya a’zolari qonun loyihasi yuzasidan bildirilgan fikr va takliflarni muhokama qilib, uni qöllab-quvvatladi.

Şundan söng intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qiliş tizimini takomillaştirişga qaratilgan qonun loyihasi körib çiqildi.

Qonun loyihasi bilan xizmat vazifalarini yoki xizmat topşiriğini bajariş jarayonida yaratilgan asarlarga bölgan mulkiy huquqlarni tartibga solişda tomonlarning şartnomaviy erkinligini ta’minlaş nazarda tutilmoqda.

Fraksiya a’zolarining fikriça, qonun loyihasining qabul qilinişi intellektual mulk sohasidagi huquqiy mexanizmlarni takomillaştiriş, mahalliy va xorijiy investorlar uçun işonçli huquqiy muhit yaratiş hamda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oşirişga xizmat qiladi.

Muhokamadan söng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qöllab-quvvatlandi.

«Xalq sözi».

Belarus Milliy majlisi Vakillar palatasi özbekistonlik mehnat migrantlarini jalb etiş töğrisidagi bitimni ratifikatsiya qildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 3-noyabr

ERIŞILGAN YUTUQLAR ÇEGARA EMAS

1 2017-yildan boşlangan islohotlarda qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlaş davlat siyosatining ustuvor yönalişi etib belgilandi. 2023-yilda esa bu siyosiy-huquqiy evolyutsiya mantiqiy davomini topib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Özbekistonning huquqiy davlat ekani töğridan-töğri mustahkamlandi.

Huquqiy davlat konsepsiyasi faqat qonun ustuvorligini ta’minlaş bilan çeklanmaydi. Qonunning özi ham adolatli bölişi hamda mutanosiblik va inson huquqlarini hurmat qiliş tamoyillariga asoslanişi lozim. Aynan şu maqsadda Adliya vazirligi tomonidan turli sohalarda belgilangan majburiy talablar adolat nuqtai nazaridan töliq qayta körib çiqilmoqda. Mazkur yönalişda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarning yagona elektron reyestri şakllantirildi.

Tadbirkorlar uçun keng imkoniyatlar

Elektron reyestr tadbirkorlik faoliyati uçun “Biznes-navigator” bölib xizmat qiladi va ular faoliyatini tekşirişda qonuniylikni ta’minlaydi hamda asossiz javobgarlik çoralari qöllanilişining oldini oladi. Şuningdek, ayni sohada “Biznes-kalkulyator” vazifasini bajarib, tadbirkorlarga nisbatan byudjet xarajatlarini, ma’muriy yuk va byurokratiyani baholaşga imkon yaratadi. Muhimi, qonunçilik hujjatlaridagi ziddiyatli, eskirgan va öz ahamiyatini yöqotgan qoidalarni tezkorlik bilan aniqlaş hamda bartaraf qilişda qöl keladi.

Uşbu reyestrga 42 mingdan ortiq talablar kiritilib, nomaqbul deb topilgan 2,5 mingdan köp ortiqça talablarni qisqartiriş böyiça takliflar işlab çiqildi va ularning 1,6 mingdan ziyodi hukumat qarorlari bilan bekor qilindi.

Bir qaraşda bular qonunçilik texnikasiga oid raqamlardek körinişi mumkin. Aslida esa ular Prezidentimiz ilgari surgan davlatning iqtisodiyotga aralaşuvini qisqartiriş, tadbirkorga erkin işlaş uçun şaroit yaratiş va byurokratik tösiqlarni bartaraf etiş siyosatining huquqiy ifodasidir. Har bir bekor qilingan asossiz talab ortida tadbirkor vaqti va mablağining tejalişi, davlat organi bilan muloqotining kamayişi bor.

Huquqiy davlat faqat qonunlar soni bilan emas, balki ularning sifati va asoslanganligi bilan ham baholanadi. Şu nuqtai nazardan, dalillar bilan “mixlangan” norma ijodkorligi hamda “Qonunlarning tartibga soliş ta’sirini baholaş”



(TSTB) institutining joriy qilinişi alohida ahamiyat kasb etayotir. Mazkur yondaşuv har bir yangi majburiyat yoki çeklovning jamiyat uçun zarurati va undan kutilayotgan natija örtasidagi mutanosiblikni ta’minlaydi.

E’tibor bering, 2021 – 2025-yillarda tartibga soliş ta’sirini baholaş orqali qariyb 10 trln. sömlik ortiqça xarajatlarning oldi olingan bölsa, faqatgina joriy yilning birinçi yarmida bu körsatkiç qariyb 1,0 trln. sömlik darajaga yetdi. Şuningdek, hujjatlarning haqiqiy amaliy natijadorligini ta’minlaş maqsadida qonunlar uçun “KPI” tizimi joriy etildi. Xususan, 2025-yilda yuzga yaqin qonunçilik hujjatlarining samaradorligi baholanib, natijalari Prezident Administratsiyasi, parlament va hukumatga kiritildi. Ayni paytda Ma’muriy javobgarlik töğrisidagi kodeks yangi tahrirda tubdan qayta işlab çiqilmoqda.

Norma ijodkorligi va raqamli texnologiyalar

Zamonaviy huquqiy davlatni barpo etiş norma ijodkorligi jarayonlarini ham yangi bosqiçga olib çiqişni talab qiladi. Bugun bu boradagi eng istiqbolli yönalişlardan biri sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanişdir.

Dunyoda keng qöllanilayotgan “Law as Code” (“Qonun – kod sifatida”) yondaşuvi asosida milliy qonunçilikning yangi bazasini şakllantiriş imkoniyatlari örganilmoqda. Bu huquqiy normalarni qöllaşda subyektiv talqinlarni kamaytirib, qoidalarning aniq hamda izçil işlaşini ta’minlaydi.

Qonunçilik hujjatlari loyihalarining tartibga soliş ta’sirini baholaş jarayonlariga ham sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etiş işlari amalga oşirilmoqda. Bunda davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini integratsiya qiliş, huquqni qöllaş amaliyoti, sud qarorlari, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining murojaatlari hamda boşqa ma’lumotlarni tahlil qiliş orqali loyihalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta’sirini avtomatlaştirgan holda oldindan baholaş imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi taşabbuslarni röyobga çiqariş hamda huquqiy soha uçun innovatsion yeçimlarni yaratiş maqsadida vazirlik tomonidan “Huquqiy innovatsiyalar laboratoriyasi”ni taşkil etiş işlari rejalaştirilmoqda. Laboratoriya doirasida IT-kompaniyalar, startap jamoalari, huquqşunoslar örtasida samarali hamkorlik yölga qöyilib, ularning innovatsion ğoyalarini huquqiy texnologiyalar sohasida amaliy yeçimlarga aylantiriş uçun zarur şart-şaroitlar yaratiş közda tutilmoqda.

Sir emas, huquqiy tarbiya va madaniyat islohotlarning ma’naviy poydevori hisoblanadi. Qonun ustuvorligi faqatgina kuçli normativ baza, jarimalar yoki raqamli tizimlar bilangina ta’minlanmaydi.

> *“Huquqiy xizmatlar borasidagi özgarişlar ham fuqarolarning kundalik hayotida yaqqol sezilmoqda. Masalan, 2026-yilning birinçi yarmida 460 mingdan ortiq notarial harakatlar masofadan turib (onlayn) rasmiylaştirildi, davlat xizmatlarining esa 90 foizdan ziyodi elektron şaklga ötkazildi.”*

Har qanday huquqiy mexanizmning samaradorligi, avvalo, jamiyatda şakllangan huquqiy madaniyat va tarbiya dasturlariga bevosita boğliq.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, jamiyatda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltiriş demokratik taraqqiyotning eng muhim şarti. Agar fuqaro qonunni faqat majburiyat yoki taqiq sifatida emas, balki öz huquqlarini kafolatlaydigan işonçli qalqon örnida anglasagina, çinakam huquqiy jamiyat barpo etiladi. Şu bois keyingi yillarda huquqiy tarbiya yondaşuvlari ham tubdan özgardi. An’anaviy qaraşlardan voz keçib, qonunlarni hayotiy misollar, zamonaviy mediamahsulotlar va amaliy könikmalar orqali örgatiş tizimiga ötilmoqda. Yoşlarning huquqiy savodxonligini oşiriş, maktab va oliy ta’lim dargohlaridan boşlab qonunga hurmat tuyğusini singdiriş eng muhim strategik vazifalarimizdan biridir.

Şunga köra qonunni hurmat qiliş har bir fuqaroning kundalik odatiga aylanmas ekan, közlangan oliy maqsadlarga tölaqonli erişib bölmaydi.

Huquqiy xizmatlar takomillaşmoqda

Huquqiy xizmatlar borasidagi özgarişlar ham fuqarolarning kundalik hayotida yaqqol sezilmoqda. Masalan, 2026-yilning birinçi yarmida 460 mingdan ortiq notarial harakatlar masofadan turib (onlayn) rasmiylaştirildi, davlat xizmatlarining esa 90 foizdan ziyodi elektron şaklga ötkazildi.

Bu raqamlar ortida davlat va fuqaro munosabatlarining butunlay yangi modeli turibdi. Ön yil avval fuqaro bir ma’lumotnoma uçun idorama-idora yurgan bölsa, bugun davlatning özida mavjud ma’lumotni fuqarodan yana talab qilmaslik prinsipi qaror topmoqda. Ilgari inson davlat xizmatini izlab borgan bölsa, endi navbatdagi maqsad – davlat xizmatining insonni özi “topişi”. Proaktiv xizmatlar ğoyasining mohiyati ham şunda.

Prezidentimiz ilgari surgan “davlat idoralari xalqimizga xizmat qilişi kerak” degan tamoyilning eng aniq amaliy ifodalaridan biri aynan mana şu transformatsiyadir. Endilikda biz faqat “elektron davlat xizmati” bilan çeklanib qolmasdan, inson iştirokini minimallaştiradigan proaktiv va avtomatik xizmatlar tizimiga ötişni maqsad qilganmiz. Ya’ni davlat fuqaroning murojaatini kutib ötirmasdan, unga qonun böyiça tegişli xizmatni özi taklif etişi kerak.

Advokatura institutining rolini kuçaytiriş, yuridik yordamdan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga davlat hisobidan yuridik yordam körsatiş mexanizmlari takomillaştirildi. Bunda asosiy mezon inson öz huquqi buzilganda uni tez, adolatli va ortiqça xarajatsiz tiklay olişidadir.

Şuning uçun kelgusi bosqiçda nizolarni sudgaça hal etiş, mediatsiya va boşqa muqobil mexanizmlarni kengaytiriş, professional yuridik yordam sifati hamda raqamli texnologiyalar orqali odil sudlovga erişiş imkoniyatlarini yanada oşiriş muhim vazifa bölib qoladi.

Ustuvor vazifalar

Bugun dunyo juda tez özgarmoqda. Sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, transçegaraviy munosabatlar huquq tizimi oldiga mutlaqo yangi savollarni qöymoqda. Qolaversa, ötgan yillarda yaratilgan huquqiy poydevor endilikda bizdan islohotlarning sifat jihatdan yangi bosqiçiga ötişni talab qilayotir. Bunda asosiy maqsad – yangi qonunlar sonini köpaytiriş emas, ularning inson hayotidagi real samarasini oşiriş.

Şu ma’noda, Özbekiston huquqiy taraqqiyotining kelgusi bosqiçida qator ustuvor vazifalar turibdi. Avvalo, inson huquqlari himoyasining amaliy mexanizmlarini yanada kuçaytiriş, qonunçilikni ixçam, tuşunarli va barqaror qiliş, har bir yangi tartibga solişning fuqaro hamda biznesga ta’sirini oldindan va keyinçalik baholaş çoralarini köriş juda muhim. Bundan taşqari, malakali yuridik yordam oliş imkoniyatlarini kengaytiriş, nizolarni sudgaça hal etiş jarayonlarini soddalaştiriş va raqamlaştiriş ham diqqat markazimizda bölmoqda.

Davlat xizmatlarini inson ehtiyojlari asosida qayta quriş, ularni proaktiv va imkon qadar avtomatik şaklga ötkaziş, şuningdek, sun’iy intellekt hamda “LegalTeç” imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi avlod huquqiy ekotizimini şakllantiriş masalasi ham juda dolzarb.

Asosiysi, qonun inson uçun murakkab tösiq emas, balki uning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan işonçli vosita böladigan huquqiy tizimni barpo etiş pirovard maqsadlarimizdan.

Akbar TOŞQULOV,
Özbekiston Respublikasi adliya vaziri.

IQTISODIY INTEGRATSIYA VA MUŞTARAK TARAQQIYOT SARI

1



Yangi Özbekistonni barpo qilişga qaratilgan iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy özgarişlar taşqi siyosatda ham oçiqlik, pragmatizm va özaro manfaatdorlik tamoyillarini kuçaytirmoqda. Mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortişi, investitsiyaviy muhitning yaxşilanişi, transport va energetika infratuzilmasining rivojlanişi Özbekistonning mintaqaviy jarayonlardagi amaliy hissasini kengaytiriş uçun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Bugungi mintaqaviy jarayonlar siyosiy kelişuvlarning soni bilan emas, balki ularning xalqlar hayotida seziladigan amaliy natijalari bilan ölçanmoqda. Savdo hajmini oşiriş, yangi transport yölaklarini işga tuşiriş, energiya resurslaridan samarali foydalaniş, çegaraoldi hududlar hamkorligini kengaytiriş, yoşlar va talabalar almaşinuvini rivojlantiriş kabi vazifalarning barçasi bir maqsadga – Markaziy Osiyoni tinç, barqaror, iqtisodiy jihatdan özaro boğlangan va raqobatbardoş makonga aylantirişga kömak beradi.

Markaziy Osiyo öz taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqiçiga qadam qöydi. Bugun biz çinakam birdamlik davrini boşdan keçiryapmiz. Mintaqamizda uzoq yillar mobaynida ilk bor birgalikda oldinga qarab intiliş uçun poydevor bölib xizmat qilayotgan özaro işonç, yaxşi qöşniçilik va hurmat muhiti şakllandi. Bu öz-özidan paydo bölib qolgani yöq. Bu umumiy taqdir va birga taraqqiy etiş salohiyatini anglab yetgan davlatlarimiz yetakçilarining, ayniqsa, Özbekiston Prezidentining taşabbuslari va qat’iy siyosiy irodasi natijasidir. Bugungi kunda erişilgan oliy darajadagi kelişuvlarni fuqarolar va biznes uçun aniq natija va qulayliklarga aylantiriş strategik zaruratga aylandi.

Sönggi sakkiz yilda mintaqamizda mutlaqo yangi iqtisodiy manzara qaror topdi. Yalpi içki mahsulot 2,5 barobar ösib, 520 mlrd. dollarga yetdi. 2026-yilda umumiy hajm ilk bor 600 mlrd. dollardan oşişi başorat qilinmoqda. Taşqi savdo hajmi 2 karradan ziyod ösib, 253 mlrd. dollarga, mintaqa içidagi özaro savdo esa 2 barobar köpayib, 11 mlrd. dollarga yetdi. Özbekistonning mintaqa bilan savdosi 2,4 mlrd.dan 7,2 mlrd. AQŞ dollarga oşdi.

Qöşnilar örtasidagi iqtisodiy aloqalarning faollaşuvi Markaziy Osiyo sanoatining yiliga qariyb 6 foizga ösişiga olib keldi. Bu jahon örtaça körsatkiçidan 2 karra tez deganidir. Qöşma investitsiya fondlari, masalan, Özbekiston – Qirğiziston, Özbekiston – Tojikiston, Qozoğiston – Qirğiziston va 2025 – 2027-yillarga möljallangan sanoat kooperatsiyasi dasturlari bu ösişning asosiy drayveri hisoblanadi. 80 millionlik aholiga ega Markaziy Osiyo Yevroosiyoning muhim qismiga aylandi. Natijada bugun barça kuç markazlari Markaziy Osiyoga intilayotganiga guvoh bölyapmiz.

Mintaqada ilgari eng oğriqli bölgan suv-energetika masalalari ayniçoğda muştarak rivojlaniş platformasiga aylanmoqda. Özbekiston, Qozoğiston va Qirğiziston “Qambarota GES-1” gidroenergetik loyihasini birgalikda moliyalaştiriş va qurişga kelişib oldi. Özbekiston va Tojikiston iştirokida Zarafşon daryosida Yovon va

> *“Sönggi sakkiz yilda mintaqamizda mutlaqo yangi iqtisodiy manzara qaror topdi. Yalpi içki mahsulot 2,5 barobar ösib, 520 mlrd. dollarga yetdi. 2026-yilda umumiy hajm ilk bor 600 mlrd. dollardan oşişi prognoz qilinmoqda. Taşqi savdo hajmi 2 karradan ziyod ösib, 253 mlrd. dollarga, mintaqa içidagi özaro savdo esa 2 barobar köpayib, 11 mlrd. dollarga yetdi. Özbekistonning mintaqa bilan savdosi 2,4 mlrd.dan 7,2 mlrd. AQŞ dollarga oşdi.”*

Fondaryo GESlari barpo etilmoqda. Turkmaniston bilan Amudaryo suv resurslaridan oqilona foydalaniş böyiça kelişuvga erişildi. Özaro murosa va hurmat asosida “Çaşma” buloği va “Bahri Tojik” kabi umumiy suv omborlari va manbalardan vegetatsiya davrida foydalaniş mexanizmlari şakllandi.

Jahon siyosati va iqtisodiyotida özgarişlar şiddat bilan davom etayotgan bir paytda, mintaqalar örtasidagi aloqalarni mustahkamlaş va yangi transport yöllarini izlaş muhim ahamiyat kasb etayotgani ham sir emas. Bu borada “Örta yölak” loyihasi Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevropani boğlovçi muhim transport arteriyasi sifatida e’tiborni tortmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari dengizga çiqiş imkoniyati çeklanganligi sababli “Örta yölak” ular uçun jahon bozorlariga çiqişning muhim yölidir. Rossiya hududidan ötuvçi an’anaviy yöllarga muqobil bölgan bu yöl geosiyosiy xatarlarni kamaytirişga xizmat qiladi. “Örta yölak” mintaqa davlatlari örtasidagi savdo aloqalarini kuçaytiriş, eksport va import hajmini oşiriş imkonini beradi.

Özbekiston öz mahsulotlarini – töqimaçilik, kimyo sanoati, meva-sabzavot va toğ-kon metallurgiya boyliklarini jahon bozorlariga çiqarişda birgina yönalişga qaramlikni bartaraf etayotgani e’tiborli. Rasmiy Toşkent qöşni davlatlar va Janubiy Kavkaz portlari orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirişni közlamoqda.

Yevroosiyo taraqqiyot bankining baholaşiça, 2030-yilga kelib Markaziy Osiyo orqali ötadigan uçta asosiy yölak böylab umumiy yuk oqimi bir yarim baravar ösib, 95 mln. tonnaga yetişi mumkin. Konteyner taşuvlari yanada katta dinamikani namoyiş etib, deyarli uçdan ikki qismga köpayadi va 1,7 mln. TEU (yigirma futlik ekvivalent birligi)ga yetadi. Markaziy Osiyo mintaqasining har bir mamlakati milliy strategiyalar doirasida öz hududidagi yölakning ötkazuvçanlik qobiliyatini sezilarli darajada oşirişni rejalaştirmoqda.

Markaziy Osiyo uçun yuk taşuvlarida Xitoy – Qirğiziston – Özbekiston temir yöli ham strategik rol öynaydi. Qurilişi faol olib borilayotgan yölning istiqboldagi yillik yuk ötkaziş quvvati 15 mln. tonnagaça böladi. Mintaqa faqat tranzit yölak bölib qolmasligi kerak. Şu bois yöllar böylab sanoat korxonalari, qayta işlaş majmualari va raqamli logistika xablarini taşkil etiş orqali maksimal qöşilgan qiymat yaratiladi.

Yana bir muhim imkoniyat şundaki, mintaqaning oçiqligi va tinçliksevarligi tufayli jahonning yetakçi markazlari bilan boğlovçi qator “Markaziy Osiyo plyus” (“C5+”) formatlari faoliyat yuritayotir. Bu muloqotlar endilikda davlat rahbarlari darajasidagi doimiy sammitlarga aylanib, aniq investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalar bilan tölmoqda.

Bugungi kunda dunyo böylab litiy, uran, mis, volfram, noyob yer elementlariga talab juda yuqori. Markaziy Osiyo bu zaxiralar böyiça yetakçi örinlarda turadi. “C5+” formatlari uşbu xomaşyolarni şunçaki arzon narxda eksport qiliş emas, balki Ğarb va Osiyoning yetakçi kompaniyalarini jalb etgan holda ularni mintaqaning özida çuqur qayta işlaş va yuqori qiymatli mahsulot yaratiş imkonini beradi. Qolaversa, xavfsizlik va ekologik tahdidlarga birgalikda qarşi kuraşiş, terrorizm, narkotrafik, transçegaraviy jinoyatçilik hamda Afğonistondagi vaziyatni barqarorlaştiriş böyiça global donorlar va harbiy-siyosiy markazlar bilan muvofiqlaşgan holda işlaş mumkin böladi.

Markaziy Osiyo integratsiyasi jadallaşayotgan bölsa-da, uning oldida qator çaqiriqlar ham mavjud. Mintaqa öz tölov va raqamli infratuzilmasini yaratar ekan, u taşqi yirik geosiyosiy markazlar hamda texnologik gigantlarga qaram bölib qolmasligi lozim. Bojxona va tarif tizimlarini uyğunlaştiriş, davlatlar örtasidagi notarif tösiqlarni qisqartiriş va bojxona rasmiylaştiruvini raqamli formatga töliq ötkaziş zarur. Orol dengizi qurişi oqibatlari va iqlim özgarişi sababli muzliklarning erişi umumiy ekologik strategiyani qabul qilişni taqozo etmoqda.

Mintaqada tinçlik-barqarorlikni mustahkamlaş, iqtisodiy taraqqiyot va xalqlar farovonligini ta’minlaş bugungi kun vazifasigina emas, kelajak avlodlarning ham oldidagi mas’uliyatdir. Bu mas’uliyatni anglagan holda harakat qilayotgan davlatlar esa öz taqdirini bir-biri bilan boğlangan holda, imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot va farovonlik sari yönaltirmoqda. Şu jihatdan qaraganda, Markaziy Osiyoda bugun şakllanayotgan hamjihatlik muhiti mintaqaning ertangi taraqqiyoti uçun eng muhim strategik kapitaldir.

Şamsiddin ALLAYAROV,
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Festival

QOVUN SAYLI

Azaldan poliz mahsulotlari yetiştiriş borasida boy tajriba töplangan va özige xos dehqonçilik an’analari şakllangan Beşariq tumanidagi Andarxon qişloğida “Qovun sayli” bayrami bölib ötdi.



Tadbirda Farğona vodiysi viloyatlaridan kelgan qovun yetiştiruvçilar, xorijiy mehmonlar hamda keng jamoatçilik vakillariga qovunning sara navlari namoyiş etildi.

– Bu yilgi bayram tantanalarida poliz ekinlari mutaxassislari, olimlar, MDH va Osiyo qit’asi davlatlaridan yuzlab sayyohlar qatnaşdi, – deydi Beşariq tumani hokimi örinbosari Otabek Alimatov. – Qovun va boşqa poliz mahsulotlari, milliy taomlar körgazmalari ötkazilib, mehmonlarga ulardan bahramand böliş imkoniyati ham yaratildi.

Sayil davomida qovun yetiştiriş va uni uzoq muddat saqlaş böyiça mahorat maşğulotlari taşkil etildi.

Andarxon qovun sayli nafaqat mazasi tilyorar şirin-şakar qovunlar, balki milliy dehqonçilik tajribasi, mehnatsevarlik va avloddan-avlodga ötib kelayotgan qadriyatlar namoyişi sifatida ham ahamiyatlidir.

Botir MADIYOROV
(«Xalq sözi»).

Körik-tanlov

YOŞ BAXŞILAR BELLAŞUVI

Çiroqçi tumanida Özbekiston xalq baxşisi Şomurod Toğayev xotirasiga bağişlab “Qaşqadaryo yoş baxşilari” viloyat körik-tanlovi ötkazildi.

Özbek baxşiçilik san’atida alohida maktab yaratgan Şomurod baxşi Toğayev 1932-yilda Çiroqçi tumanining Arabbandi qişloğida tuğilgan. Uning bolalik va yoşlik yillari Sibirda, surgunda keçgan. Şunga qaramay, dömbirasini qöldan qöymagan. Önlab dostonlarni maromiga yetkazib ijro etgan, yuzlab termalar yaratgan. Ayniqsa, “Guldan”, “Mehkam çol” kabi termalari xalq orasida maşhur. U 2020-yilda, 88 yoşida hayotdan köz yumgan.

“Qaşqadaryo yoş baxşilari” viloyat körik-tanlovi Şomurod baxşining xotirasini abadiylaştiriş hamda baxşiçilik yönalişida faoliyat yuritayotgan yoş iqtidorlarni qöllab-quvvatlaşda muhim qadam böldi.

Tanlovda viloyatning turli hududlaridan kelgan yoş baxşilar öz mahoratlarini namoyiş etdi. Ularning çiqişlari hakamlar hay’ati tomonidan baholab borildi. Yakunda qator nominatsiyalar böyiça ğolib va sovrindorlar aniqlanib, esdalik sovğalari va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Jahongir
BOYMURODOV
(«Xalq sözi»).

Pokiston poytaxti Islomobod şahrida bölib ötgan «International Silk Route Festival – 2026» xalqaro festivalida Özbekistonning boy sayyohlik salohiyati keng namoyiş etildi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1142. 17 558 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga “Şarq” naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir A. Aliqulovov.
Musahhih S. Islomov.

“Şarq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 00.10 Topşirildi – 01.00 1 2 3 4 5 6